



OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI HISOBDOIRLIK TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Meliqo'ziyev Abrorjon Akram o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi
Farg'ona hududiy filiali bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta'limni rivojlantirish tizimining maqsadi, vazifalari, tamoyillari va strategik yo'nalishlari bayon qilingan. Shuningdek oliy ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, ta'lim tizimidagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim muassasalari hamda ilmiy-metodik ta'minot tizimidagi tarqoqlik pedagogik ta'limni klaster asosida rivojlantirish modeliga o'tkazish zaruratini taqozo etishi ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, tamoyil, mexanizm, talab, istak, ta'lim sifati, ta'lim klasteri.*

МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ВУЗЕ НА ОСНОВЕ УЧЕТНЫХ ПРИНЦИПОВ

Меликозев Аброржон Акрам Сын

*Главный специалист Ферганского областного филиала Академии
государственного управления при Президенте Республики Узбекистан*

Аннотация: *В статье описаны цель, задачи, принципы и стратегические направления развития системы высшего образования. Также, исходя из того, что высшее образование имеет высокое социокультурное значение в устойчивом развитии общества, современные требования, проблемы в системе образования и раздробленность образовательных учреждений и системы научно-методического обеспечения при их решении, разработка педагогическое образование на кластерной основе научно обосновано необходимостью перехода к модели.*

Ключевые слова: *высшее образование, принцип, механизм, спрос, желание, качество образования, образовательный кластер.*

MECHANISMS OF ORGANIZING PEDAGOGICAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF ACCOUNTING PRINCIPLES

Meliqo'ziyev Abrorjon Akram Son

*Chief specialist of the Fergana regional branch of the Academy of Public
Administration under the President of the Republic of Uzbekistan*



Abstract: *The purpose, tasks, principles and strategic directions of the higher education development system are described in the article. Also, based on the fact that higher education has a high socio-cultural importance in the sustainable development of society, modern requirements, problems in the educational system and the fragmentation of educational institutions and the scientific-methodical supply system in solving them, development of pedagogical education on a cluster basis It is scientifically based on the need to transfer to the model.*

Key words: *higher education, principle, mechanism, demand, desire, quality of education, educational cluster.*

KIRISH

Mamlakatimizda pedagogik oliy ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish borasida olib borilayotgan islohotlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi⁴⁹, 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-son «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi⁵⁰, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning metodik tizimini rivojlantirish, umumta'lim fanlarini integratsiyalash, ilg'or o'qitish metodlari va texnologiyalarini tadbiiq etish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda.

Oliy ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish hozirgi kunning muhim vazifalari sifatida belgilangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishni asosiy yo'nalishlari bo'yicha qator ijobiy natijalar qo'lga kiritilgan. Xususan, pedagogik ta'lim klassifikatorlari takomillashtirilib, pedagogik ta'lim mazmuni yangilanib, ta'lim tizimi mutaxassislarining kasbiy tayyorlanishi bo'yicha ta'limning axborot muhiti va ilmiy-metodik ta'minoti boyitib borilmoqda.

Shu bilan birga, pedagog tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tadbiiq etish, yoshlarni har tomonlama

⁴⁹. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli qarori.

⁵⁰. Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-son.



intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ta'lim muassasalarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash yo'nalishlarida qator dolzarb masalalar mavjud.⁵¹

Klaster ijtimoiy hamkorlik asosida viloyatning pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishda ishtirokchi bo'lgan ta'lim boshqarmalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash uning faoliyatini metodologik, ilmiy-tadqiqot va innovatsion nuqtai nazarda amalga oshirgan holda tartibga soladi. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Pedagogik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqaradi;
- Ta'lim sohasidagi, jumladan pedagog ta'lim sohasidagi mavjud muammolar va psixologik-pedagogik tadqiqotlarning yetakchi mavzularini belgilaydi;
- Pedagogik ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqaradi;
- Pedagogika fanlari bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirayotgan magistr, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun viloyat miqiyosidagi metodologik seminarlarni doimiy o'tkazib boradi;
- mavjud ilmiy maktablar va pedagogik ta'lim sohasidagi, o'quv sohasidagi innovatsion tajribalar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratadi

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri kasbiy tayyorgarlik, pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning butunlay yangilangan ilmiy, ta'lim muhitini yaratadi va unda:

- intellektual imkoniyatlar uzluksiz pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida mujassamlashtiriladi;
- o'quv qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy pedagogik tajribaning samarali tadbiqu uchun ta'lim muassasalarini uzviy hamkorligiga erishiladi;
- mahalliy mehnat bozorlari uchun zarur bo'lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish sohasidagi ijtimoiy sheriklik amalga oshiriladi;
- Yuksak malakali pedagogik kadrlarni saralash va tayyorlash bo'yicha samarali izchillik ta'minlanadi;
- pedagogik kadrlar kasbiy tayyorgarligining amaliy yo'naltirilganligi kuchaytiriladi;
- bo'lajak pedagog ilg'or kasbiy pedagogik taraqqiyotining ta'lim muhitiga qo'shiladi;
- yosh mutaxassislarining kasbiy moslanuvchanligi davri qisqartiriladi.⁵²

⁵¹. Eshchanov B.Kh., Arzikulov Z.K., Using Information Technology in the Teaching of Atomic Physics and maths in Higher Educational Institutions International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020. –. 6319- 6323-b.

⁵². "Dunyo globallashuv jarayoni va O'zbekiston yoshlari" mavzusidagi onlayn xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyasi maqolalar to'plami – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. - 163 b.



Pedagogik ta'limning kadrlar ta'minotini takomillashtirish quyidagilar bilan bog'liq:

jamiyatning zamonaviy talablarini va ta'lim tizimini hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini optimallashtirish bilan, pedagogik ta'limning barcha bosqichlarida va darajalarida professional malaka oshirish muddatini qisqartirish va innovatsion rejimda ishlashga tayyorgarlikni ta'minlash uchun ilg'or shaxsiy professional rivojlanish muhitini yaratish kerak;

Oliy o'quv yurtlari uchun yuqori malakali ilmiy xodimlarni (PhD, DSc) o'z vaqtida va yuqori sifatli tayyorlash bilan birga ilmiy va ma'rifiy faoliyat sohasida iqtidorli yoshlarni tanlash va qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, magistratura va doktoranturada ilmiy va pedagogik xodimlarni tayyorlashning mazmuni, shakllarini va uslublarini uzluksizligini ta'minlash xamda samarali doktorlik dasturlarini tuzish.

Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini moddiy-texnika ta'minotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi – maktabgacha, maxsus, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha pedagogik ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazalarini, ularning ijtimoiy-madaniy infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi.⁵³

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni hisobdorlik tamoyillari asosida tashkil etish tizimining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin:

- mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini hisobga olgan holda qo'yilgan talablardan kelib chiqib uzluksiz pedagogik ta'limning maqsad va mazmunini yangilanganligi;
- ta'lim jarayoni shakllari, metodlari, texnologiyalarini muammoli tadqiqotchilik, faol, jamoaviy ta'lim strategiyalari asosida modernizatsiyalanganligi;
- zamonaviy psixologik-pedagogik fan va ta'lim amaliyoti muammolarini, uzluksizlik va vorisiylik tamoyillarini hisobga olgan holda oliy toifali ilmiy xodimlar tayyorlashni takomillashtirilganligi;
- uzluksiz pedagogik ta'limning rivojlantirishda innovatsion klaster modeliga o'tishi;
- axborot jamiyati sharoitida uzluksiz pedagogik ta'lim milliy tizimi resurs ta'minotini takomillashtirish va pedagogik kasb nufuzini oshirish; zamonaviy pedagogning ijobiy obrazini shakllantirish.

Albatta har bir ishning yakuniy mahsuli bo'lgani kabi uzluksiz pedagogik ta'limni rivojlantirish tizimidan kutilayotgan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

- pedagogik ta'limning maqbul infratuzilmasi yaratiladi;

⁵³. Eshchanov B.Kh., Gaipov Dj.N., Egamberganov I.Sh. Using Distance Learning in Collaboration with Social Networks in Teaching Photonics and Optoinformatics. International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020.3811- 3815-b.



•pedagog kasbiy mahoratining yangi sifat darajasini ta'minlaydigan pedagogning kasbiy standarti va yangi avlod ta'lim standartlari ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli qarori.

2. Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-son.

3. Eshchanov B.Kh., Arzikulov Z.K., Using Information Technology in the Teaching of Atomic Physics and maths in Higher Educational Institutions International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020. -. 6319- 6323-b.

4. "Dunyo globallashuv jarayoni va O'zbekiston yoshlari" mavzusidagi onlayn xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyasi maqolalar to'plami - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. - 163 b.

5. Eshchanov B.Kh., Gaipov Dj.N., Egamberganov I.Sh. Using Distance Learning in Collaboration with Social Networks in Teaching Photonics and Optoinformatics. International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020.3811- 3815-b.

6. www.arxiv.uz

7. www.cyberleninka.uz

8. www.buxdu.uz

9. www.aim.uz